



GINEKOLOGIYA VA REPRODUKTIV SALOMATLIK

Egamberdiyeva Shoxsanam Azimovna

Annotatsiya: *Ginekologiya – ayollar reproduktiv tizimining tuzilishi, funksiyasi va kasalliklarini o’rganuvchi tibbiyot sohasi bo’lib, u nafaqat kasalliklarning oldini olish va davolash, balki ayollar salomatligini saqlashda muhim o’rin egallaydi. Reproaktiv salomatlik esa insonning kelajakda sog’lom farzand ko’rish imkoniyatini oshirish balki jinsiy va ruhiy holatini yaxshilash, shuningdek, jinsiy tarbiyaning to’g’ri yo’lga qo’yilishini o’z ichiga qamrab oladi. Maqsad – ginekologik savodxonlikni oshirish va sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish.*

Kalit so’zlar: *Reproduktiv salomatlik, to’g’ri turmush tarzi, jismoniy faoliyat, sog’lom kelajak, profilaktika ishi, bepushtlik.*

Kirish

Ginekologiya grekcha so’zdan olingan bo’lib, gynaecos – ayol, logos – ta’limot ma’nosini anglatadi. Ginekologiya ayollar jinsiy a’zolarining fiziologiyasi va patologiyasini o’rganuvchi bo’lim hisoblanadi. Dastlab ginekologiya rivojlanish manzillari quldorlik tizimi davrida dastlab cherkovlarda birinchi tibbiy yordam ko’rsatish keyinchalik Qadimgi Rim va Yunonistonda rivojlana borgan. Bu vaqtlari ayollarda bepushtlikni oldini olish va ularni turli xil usullar bilan davolash choralari ko’rilgan.

O’rta asrning buyuk allomasi, sharq mutafakkiri, tabobat ilmining sultoni bo’lgan Abu Ali ibn Sino ayollar jinsiy a’zolari kasalliklarini mukammal tarajada ta’riflab bergan. Hozirgi kunda ko’plab oilalarda bepushtlik sababchisi sifatida faqat ayollar nazarda tutiladi. Lekin tabobat ilmining sultonining fikrlarida ham oiladagi bepushtlikka ikki taraf a’zolari yani erkak va ayol teng barobar reproduktiv a’zolari kasalliklari oqibati ekanligi va ayollarda disfunktsional qon ketishlar haqida batafsil yoritib berilgan.

Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan ginekologiya sohasi va uning dastlabki qisqacha tarixi haqida munozara o’tkazamiz. Dastlab O’zbekistonda ilmiy asoslangan ginekologik yordami 1921-yilda akusherlik va ginekologiya kafedrasining tashkil etilishi bilan ko’rsatila boshlagan. Hozirgi kunda reproduktiv salomatlikka alohida e’tibor qaratish lozim. Bunga sabab ko’plab oilalar farzand ko’ra olmayotganligidan ajrimlar soni oshib bormoqda. Taraqqiyot shu darajada tez rivojlanib borayotgan bu vaqtda bepushtlikni bartaraf etish chora tadbirlari va usullari yaratilmoqda. Bepushtlik o’zi nima va qanday kelib chiqadi shu haqida bilib olamiz. Bepushtlik, tug’maslik, tug’dira olmaslik – voyaga yetgan organizmning avlod qoldirishga ojizligi. Odamda – bir maromda normal jinsiy hayot kechirib, bo’yida bo’lishdan saqlanish vositalaridan foydalanmay, kamida 1 yil birga turib farzand ko’rmaslik “bepushtlik” hisoblanadi. Bepushtlik ikki jins vakillarida ham birdek kuzatiladi.



Bepushtlik sabablari erkaklarda agar xlamidiya, gonoreya, epidemic parotit kasalliklari bo'lganida, odam OIV chalingan bo'lsa, genetik kasalliklar, qandli diabet, jinsiy azolaridagi qon tomirlari ko'paygan bo'lsa, bu holat sperma sifatiga ham ta'sir qilish ehtimollari yuqori. Agarda saraton, saraton kasalligi kemoterapi bo'lgan bo'lsa bular jinsiy a'zolariga salbiy tasir ko'rsatadi.

Ayollarda bepushtlik sabablari tuxumdonlardan tuxum qo'yilishiga ta'sir qiladigan ovulyatsiya kasalliklari bo'lsa, polikistik ovaryan sindromi kabi gormon kasalliklari bo'lsa. Juda ko'p miqdordagi qalqonsimon gormonlari yoki juda kam, bu holatlar hayz davrida ham o'zgarishi mumkin yoki bepushtlik sababi bo'lishi mumkin. Bemorlar Ichida eng ko'p semirish, anoreksiya, bulimiya pika kasalliklari bo'lsa. Bachadon saratoni – bu ko'pincha bachadon miomalari urug'langan tuxumni joylashtirishiga to'sqinlik qiladi. Abdominal a'zolarining infeksiyasi kasalliklari o'tkazilgan holatlarda ko'proq kuzatiladi.

Oldini olish va davolash chora tadbirlari:

Medikamentoz davolash – dorilar bilan davolash gormonal muvozanatsizlikni bartaraf etish uchun dori vositalari va erkaklarda spermatozoid sifatini yaxshilovchi vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari sun'iy urug'lantirish – IUI. Erkak urug'I maxsus usul bilan ayol bachadoniga kiritiladi va shu yo'l orqali bepushtlik bartaraf etiladi. Boshqa usullar misol uchun hayot tarzini o'zgartirish, stressni kamaytirish, tana vaznini normaga keltirish bepustlikni bartaraf etishda muhim o'rin tutadi.

Xulosa

Reproduktiv salomatlik – bu tananing umumiy holati hisoblanadi. Birinchi navbatda “Sog'lom onadan – sog'lom bola” tug'iladi. Har bir ona homiladorlik davrida o'z sog'lig'iga etiborli bo'lmog'I lozim. Yani hissiyotlarini boshqara olmog'I darkor. Aksariyat holatlarda qizlarni balog'atga yetmasdan erta turmushga berish holatlari kuzatilmoqda . Aslida qizlar 16-17 yoshlarda ham organizmi to'liq yetilmagan bo'ladi ham jismoniy ham ruhiy jihatdan. Erta farzand ko'rish yosh ona salomatligiga, tug'ilajak bola salomatligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Qiz bolalarda reproduktiv salomatlikning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xavfli omillarga ichki sekretiya bezlari va moddalar almashinuvini jarayonlarining buzilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) (2001) Gnekologiya bo'yicha ma'lumotlar bazasi
2. Muydinova, Y. G., & Parpiyeva, O. R. (2021). Reproductiv salomatlik. O'quv qo'llanma
3. Odam Anatomiyasi fanidan (2017) Toshkent
4. Ayupova F. M.; Ixtiyorova G. A.; Matrizayeva G. J. Akusherlik va ginekologiya
5. Shukurov F. I.; Nigmatova G. M. Ginekologiya O'quv qo'llanma
6. YA, N. Allayorov; F. Q. Asqarova Ginekologiya va reproduktiv salomatlik
7. F. M. Ayupova; Tu, Q. Djabborova Ginekologiya
8. Parpiyeva, O. R. (2023) HEALTH IS THE HIGHEST VAUE. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11),

